

**OZBEKISTON RESPUBLIKASI SOGLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TAHLIM VAZIRLIGI**

“TASDIGLAYMAN”

ADTI rector M.M.Madazimov

“ 09 ” 2022 y



70910203 - TERAPIYA

Magistratura Mutaxassisligining

MALAKA TALABLARI

Andijon 2022

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standard. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chikilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 70910203 - <i>Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi</i>	4
1.1 Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 70910203 - <i>Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi</i>	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 70910203 - <i>Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi</i>	4
1.2.1. 70910203 - <i>Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari</i>	4
1.2.2. 70910203 - <i>Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i>	5
1.2.3. 70910203 - <i>Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i>	5
1.2.4. 70910203 - <i>Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari</i>	5
2. 70910203 - <i>Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar</i>	
2.1 Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2 Kasbiy kompetensiyalar	9
Bibliografik ma'lumotlar	11
Kelishuv varag'i.....	12

1. 70910203 — *Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70910203 — *Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 3 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70910203 — *Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70910203 — *Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistr tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va modul dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va modul dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriyat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70910203 — *Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70910203 — *Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70910203 — *Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi – Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi, malaka oshirish, qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassislikka oid modullarni o'qitish;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, ilmiy-tadqiqot markazlarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida davolash-profilaktik faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika muassasalarida faoliyat yuritish kasbiy ko'nikmalariga, mutassaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70910203 — Terapiya (yo'niilishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;
- tibbiyot asbob-uskunolari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;
- jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;
- sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika bo'yicha davlat va xususiy muassasalar, viloyat, shahar, tuman davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari va mas'ul shaxslar;
- ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlari, tibbiy yordam xizmatlariga ega bo'lgan xususiylik istalgan shaklda bo'lgan ishlab chiqarish birlashmalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.

1.2.3. 70910203 — Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- davolash va profilaktika faoliyati;
- tibbiy-ijtimoiy;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

1.2.4. 70910203 — Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari

70910203 — Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish, olingan natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tadbir qilish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish.

- o'tkazilgan tekshiruvlar, ularning natijalarini tahlil qilishda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, umumlashtirish hamda ularni amaliyotga tatbiq qilish;

- namunaviy uslubiyotlar va boshqalar bo'yicha eksperimental va klinik tadqiqotlarni o'tkazishi va ularning natijalariga ishlov berish;

ilmiy-amaliy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruzalar bilan ishtirok etish;

- terapiya yo'nalishi mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- ilmiy faoliyat va o'quv jarayonini tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning) va mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-uslubiy majmualarini mukammal o'zlashtirish;

- ilmiy va pedagogik mahorati hamda malakasini muntazam ravishda oshirib borish.

Davolash va profilaktika faoliyatida:

- bemorlarda ichki a'zolar kasalliklarini aniqlash va (kam invazyali usullarni qo'shib) davolash;

- tezkor yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'la hajmdagi ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis-terapevt sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatish;

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishi;

- keng tarqalgan terapevtik kasalliklarni kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:

- sog'liqni saqlashda ijtimoiy tadqiqotlar uslublaridan foydalanish, aholining ijtimoiy hayot tarzidan kelib chiquvchi muammolar bo'yicha turli xil strategik reja va dasturlar ishlab chiqish, amalga oshirish yo'llarini belgilash va yechimlar qabul qilish;

- ijtimoiy muassasalarda yuzaga keluvchi tibbiy-ijtimoiy nizo holatlaridan chiqish, yechish, ularni boshqarish, holatni baholay olish;

- ijtimoiy himoya organlari va rahm-shavqat xizmatlari bilan hamkorlikda oila va alohida aholi guruhlariga ijtimoiy-gigiyenik, tibbiyot-demografik va

ijtimoiy-psixologik tahdid omillarini hisobga olgan holda xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat ko'rsatishni bilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida tibbiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilish;
- mehnat, moddiy va axborot resurslarini ratsional boshqarishni ta'minlash, boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda takomillashtirishi;
- uzluksiz ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personalini), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish,
- o'rta maxsus va tibbiyot kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tatbiq etish bo'yicha guruhlarini boshqarish.

2. 70910203 — Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik modullar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;
- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalari bilan mutanosibligi va farqini bilish;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olish;
- shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yoriylarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;
- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy, tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan modullarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlari tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lish;

- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallash;

- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

- axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfl va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

- patent olish uchun me'yoriy hujjatlar tayyorlay olish;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- bemorlarda ichki a'zolar kasalliklarini aniqlash va (kam invaziyali usullarni qo'llab) davolash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tezkor yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'la hajmdagi ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis-terapevt sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- keng tarqalgan terapevtik kasalliklarni kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- oila va alohida aholi guruhlari o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-gigiyenik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va xavf omillarini bartaraf qilishni bilishi;

– oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimining taʼlim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yoʻnalishida nazarda tutilgan oʻquv modullari boʻyicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashgʻulotlarini, jumladan oʻquv ustaxonalarida oʻtkazish koʻnikmalariga ega boʻlishi;

– oʻquv modullarini oʻqitish metodikasini egallashi koʻnikmalariga ega boʻlishi;

– zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noanʼanaviy oʻquv mashgʻulotlarini oʻtkazishni bilishi;

– oʻqitilayotgan modullar boʻyicha darslarni oʻtkazish uchun zarur boʻlgan oʻquv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirishni amaliyotga tadbiq etishni bilishi;

– oʻqitilayotgan modul boʻyicha mashgʻulotlarni oʻtkazish uchun oʻqitishning texnik vositalaridan foydalanishni bilishi;

– mustaqil taʼlim va ijodiy qidiruv natijasida oʻqitilayotgan modul hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida oʻz-oʻzini muntazam takomillashtirib borishi;

– uzluksiz taʼlim tizimining Davlat taʼlim standartlari, malaka talablari va boshqa oʻquv-meʼyoriy hujjatlarni ishlab chiqishni bilishi;

– mutaxassislik boʻyicha sogʻliqni saqlash tizimi sohasida mavjud holatlarning analitik sharhlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega boʻlishi;

– sogʻliqni saqlash tizimida tibbiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;

– hamkasblar, hamshiralalar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va ularning qarindoshlari bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlariga rioya qilish;

– individual reabilitatsiya marshrutini tuzishni bilish;

– reabilitatsiya jarayonida bemorning oʻzgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, reabilitatsiya xizmatlarini yetkazib beruvchilar va isteʼmolchilar oʻrtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, reabilitatsiya infra tuzilmasi va undan reabilitatsiya maqsadlarida foydalanish imkoniyatini bilish, reabilitatsiya dasturlarining samaradorligi va sifatini nazorat qilish.

– axborot va zamona iy pedagogik texnologiyalarni egallagan boʻlishi;

– uzluksiz taʼlim muassasalarida oʻquv jarayonini tashkil etish va oʻtkazilishiga koʻmaklashish (oʻquv personalini), tadqiqotlarda ishtirok etish, maʼlumotlarni toʻplash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy, oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar hamda oliy taʼlim muassasalarida oʻquv mashgʻulotlarini oʻtish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tadbiq etish boʻyicha guruhlarini boshqarish qobiliyatlariga ega boʻlishi lozim.

– ilmiy-tadqiqotlarni oʻtkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

– yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqishni bilish;

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistratura mutaxassisligining asosiy ta'lim dasturi profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, tibbiy bilim, sog'liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko'nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, etiologiya, patogenez, profilaktika, davolash usullari, diagnostika, kompyuter tomografiya, ultratovush tekshiruv usullari.

Reabilitatsiya, davolovchi jismoniy tarbiya, fizioterapiya, kurortologiya, jismoniy reabilitatsiya, ergoterapiya, readaptatsiya, adaptatsiya, patologik holatlar, to'qimalar biopotensial, sanatoriy va kurort, refleksoterapiya, massaj, sanitariya-gigiyena tadbirlari, elektrotravma, patologik reaksiya, funksional sinamalar, elektroforez, fonoforez, nogironlik ekspertizasi, bemorlar reabilitatsiyasini psixologik aspektlari, akupunktura, akupressura, nutrisiologiya, manual terapiya, kinezoterapiya, fitoterapiya.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLDI: